

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘QUV – METODIK KABINETI**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

KASALLIK TARIXI
(talabalar va vrachlar uchun qo‘llanma)

Andijon - 2002 y.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘QUV – METODIK KABINETI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

ICHKI KASALLIKLAR - PROPEDEVTIKASI KAFEDRASI

KASALLIK TARIXI
(talabalar va vrachlar uchun qo‘llanma)

O‘rta sharqning Bogdod, Huroson, Buhoro kabi shaharlarida yashab ijod etgan ABU BAKR AR - ROZIY (865 – 925) kasalliklar tarihi risolasi va o‘zi yozgan 700 dan ortig Kasalliklar tarihi bilan hozirgi zamon kasalliklar tarihiga asos solgan.

Rossiyada M. Ya. Mudrov (1776-1831) birinchi bulib klinik tekshirishni va kasallik tarihini yuritishni amaliyotga kiritgan.

Andijon – 2003 yil

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni Saqlash Vazirligining
metodik kabineti tomonidan ruxsat etildi.**

**O‘zbekiston Respublikasi
fan arbobi, professor:**

- S.YU. Tursunov muxarrirligida

Tayyorlovchilar:

- ichki kasalliklar propedevtikasi
kafedrası dotsentlari U.S. Tursunov.,
N.D. Qosimova va assistent
Usmonova D.B

Retsenzentlar:

- 1. TashDavMI ichki kasalliklar
propedevtikasi kafedrası, professori
R.A. Qoraboeva.
- 2. And.Dav. MI I - UASh
kafedrasining mudiri, professor
N.S. Mamasoliev.
- 3. And.Dav.MI II - UASh
kafedrasining mudiri, professor
Z.S. Saloxiddinov.

XOTIRALASH -ANAMNESIS

I. SHaxsiy xujjat qismi:

Ismi va otasining ismi

jinsi _____yoshi _____

millati _____oilaviy ahvoli _____

turar joyi

kasbi _____

ilmi _____shifoxonaga tushgan kuni

/yili, oyi, kuni/ _____

Jo‘natgan davolash tashkilotining diagnozi

aniqlovi _____

SHifoxonaga tushgan vaqtidagi diagnozi: _____

Klinik diagnoz: _____

II. Bemorning shifoxonaga tushgandagi asosiy shikoyatlari:

(Avvalo bosh shikoyatlarini ko‘rsatish kerak, keyin qisqa
umumiy qo‘shimcha shikoyatlarini ko‘rsatish kerak)

III. Kasallikni xotiralash. ANAMNESIS MORBI:

Hozirgi kasallikni tarixi, boshlangan davridan boshlab, to
shu kungacha bo‘lgan taraqqiyotini aks ettirmog‘i lozim.
Kasallik qanday boshlandi – qo‘qqisdan, o‘tkir xuruj bilan,
asta – sekin, bilinmasdan /zimdan yoki javob berishga
qiynalibmi/.

Kasallik boshlangunga qadar bemor sog‘ligining umumiy
ahvoli, u o‘z kasalligini boshlanishini nimalarga bog‘laydi.
Kasallik kelib chiqish sabablarini, aniqlashga harakat qilish,
uning birinchi belgilarini, kasallikni kechishini va uning
taraqqiyotini, ketma – ket aks etdirishga harakat qilish

KLINIK TASHHIS:

1. Asosiy kasallik.
2. Qo'shimcha kasalliklar.
3. Kasallik asoratlari.

Davolash: kasallikning kelib chiqish sabablari, taraqqiyoti, belgilari, hisobga olingan holda va umumiy mustahkamlovchi dori – darmonlar va boshqa davolash usullari yoziladi.

EPIKRIZ.

Bemorning klinikaga tushgan vaqti, jo'natgan meditsina tashkilotining diagnozi shifoxonaga tushgan vaqtidagi asosiy shikoyatlari (iloji boricha aniq) ko'rsatilishi lozim. Qisqacha kasallikning taraqqiy tarixi. Bemor hayotining tarixidagi kasallikka aloqador bo'lgan davrlari. Bemorning shifoxonaga tushgandagi ahvoli. Ichki a'zolarida va oliy nerv sistemasidagi patologik o'zgarishlar haqida qisqa va tushunarli qilib yozilishi shart. Bemorga qo'yilgan diagnozga oid patologik o'zgarishlar kengroq qilib tasdiqlovchi omillarni chuqurroq mulohaza bilan yozish kerak. Dastlabki diagnoz uni tasdiqlovchi patologik o'zgarishlarni qisqacha va tushunarli qilib yozish lozim.

Qo'shimcha tekshirishlar natijalarini ayniqsa patologik o'zgarish topilgan tekshirish usullarini to'la aks ettirish lozim. Klinik diagnoz: uni tasdiqlovchi patologik o'zgarishlar to'la yozilishi shart. Klinik diagnoz asosida olib borilgan davolash omillarni to'la – to'kis yozish kerak. Uyda ambulator sharoitda davom etdirishi zarur bo'lgan davolash usullari to'g'risida ko'rsatma berish lozim. Kasallikni qayta takrorlanmasligi uchun qilinadigan profilaktik omillar haqida va sanatoriya qurortlarda davanish to'g'risida ko'rsatma berish lozim. Kasalning ahvoli va kasallikning kechishiga, va qay darajada sog'ligini yo'qotganligiga qarab VTEK ga yo'llash to'g'risida ham ko'rsatma berish kerak.

kerak.

Kasallikni qayta takrorlanishi yoki zo'riqishini /birdaniga, o'tkir xuruj bilan, asta – sekin, bilinmasdan o'tkirlanish/, zo'riqish, asta – sekin taraqqiy etgan bo'lsa, uni qancha davom etganligini u 2 kungacha, bir haftagacha, 2=3 hafta, uch haftadan oshiqroq, 2=3 oy, 3 oydan ko'proq, qaysi fasllarda ko'proq zo'riqadi. /Qishda, bahorda, yozda, kuzda yoki yilning hamma davrida/. Kasallikni zo'riqishi, havoning o'zgarishiga, shamollashga, anginaga, asablarning zo'riqishga, jarohatga bog'likligini; remissiya davrini qancha davom etishini aniqlash kerak. Klinikaga yotish sabablarini aniqlash kerak /ahvolini yomonlashishi, kasallikni aniqlash va boshqa sabablar/, qachondan beri ish qobiliyatini yo'qotgan, qaerda davolandi va davolash natijalari. Qanaqa dorilar foyda bergan yoki yordam bermagan. Oldindan qilingan laboratoriya tekshirishlarini natijalari.

IV. Hayotni xotiralash - Anamnesis vitae:

Bemor hayotining asosiy qismlari bo'yicha tibbiy tarjimai holi.

1. Qaerda va qachon, oilada nechanchi farzand bo'lib tug'ildi.
2. Erta bolalik, o'spirinlik, etuk yosh davrlarida oilaviy sotsial – maishiy sharoiti. Organizmning erta bolalik, o'qish davrida taraqqiyoti, jismoniy va aqliy asosda sog'ligining umumiy ahvoli. Maktabni o'z vaqtida tugatdimi, unday bo'lmasa sababi nimada?
3. Qachondan boshlab ishlay boshladi. Ishlashni boshlagandan ishining holati, keyinchalik ishini uzgartirdimi, yo'qmi?
Birin – ketin ishni o'zgartirilishi va yashash joyi sabablari.
4. Keyingi davrlarda ish va oila sharoiti:
 - a) Ish sharoiti – kasbi, gigienik sharoit, ishning tartibi, qo'shimcha ishlar, dam olish /dam olish kunlari/.
 - b) Yashash sharoitlari;
 - v) ovkatlanishining ahvoli sifatli va miqdoriy ahvoli, tartibliligi.

XVI. ENDOKRIN SOHA:

1. Qalqonsimon bez, uning kattaligi va konsistentsiyasi, og'rish, /kattalashgan bo'lsa, qaysi bo'lagi kattalashganligini ko'rsatish/.

2. Jinsiy belgilarning ahvoli /birlamchi va ikkilamchi gursitizm belgilari, evnuxondizm, virilizm, falinizm/.

3. Menstruatsiya /hayz ko'rish/ me'yorida, me'yoridan tashqari, yo'q, hayz ko'rish davridagi /og'riq va hayz ko'rishdan keyingi og'riq. Ayollar jinsiy organlaridan oq moddaning chiqishi.

4. Terining ahvoli: namligi, noziklanishi yoki qo'pollanishi, (dag'allanishi), striyalar, giperpigmentatsiyalar.

5. Ko'z simptomlari: Grefe, Mebius, chayqayma ko'z, ko'rish o'tkirligi ko'rish kengligini buzilishi.

6. O'sishning buzilishi, tana tuzilishi va tananing ayrim qismlarini proportsionalligi.

7. Ozib ketish, semirish /darajasi, asosiy joylashishi/.

XVII. SEZGI ORGANLARI /A'ZOLARI/.

1. Ko'rish /mo'tadil, shapko'rlik, susayishi, ko'rishning vaqtinchali va butunlay turg'un yo'qolishi. Ekzoftalm, nistagm, qorachig'lar/.

2. Eshitish organlari /a'zolari/ og'riq, quloqdagi shovqinlar, yiring oqishi.

3. Dastlabki tashhis - /predvaritel'nyy diagnoz/ qisqacha asosiy shikoyatlari. Kasallik tarixi, hayoti, ob'ektiv tekshirish ma'lumotlari, tashhisni asoslash uchun hisobga olinadi.

XVIII. LABORATORIYA TEKSHIRISHLAR:

Rentgenologik va boshqa ixtisosli tekshirishlar natijalari /siprometriya, pnevmotoxometriya, elektrokardiografiya, radioizotop tashhis, rektoromanoskopiya va boshqalar/. Klinik laborator va bioximik tekshirishlar.

5. Bosh og'rig'i, holati, intensivligi, joylanishi, paydo bo'lish vaqti, davomiyligi.

6. Bosh aylanishi, paydo bo'lishdagi sharoitlar, boshdagi shovqin.

7. Galyutsinatsiyalar /ko'zga ko'rinishlar/.

8. Hushdan ketishlar.

9. Qonning mavjlanishi /birdaniga isib ketish/ ayollarda hayz ko'rishning to'xtashiga bog'liqligi.

10. Ong: aniq, noaniq, tubanlashgan.

11. Idrok: so'z boyligi, fikrlarini muhokama qila olish qobiliyati, o'z o'zini tanqid qila olish hususiyati.

12. Atrof – muhitni aniqlay olish qobiliyati.

13. Bosh miya nerv tolalarini tekshirish: ko'z oldi ikkilanish, ptoz, ko'z olmasining harakatini miqdori, ko'z qorachig'ini yorug'likka bo'lgan sezuvchanligi. Tishni – tishga qo'yganda, lab-burun burmasining bir xilligi. YUtishning buzilishi /disfagiya/. Tilni og'iz bo'shlig'idan chiqargandagi holati. Meningial simptomlar, Kreniga simptomi, Bruzdinskiy, ensa muskullarining qariligi, harakat sohasi: teridagi og'riq va boshqa nohush sezgilar, muskullarda, nerv tolalari bo'ylab ular qayerda qanday sharoitlarda ko'zga tashlanadi. Og'riq tortinish reflekslari, Lassega simptomi.

Reflektor soha: ko'z shoh pardasi /muguz/ refleksi: yutqum reflekslari, pay reflekslari, tizza, ahilov reflekslari. Patologik reflekslari, Babinskiy va Rassolimo, tizza ko'zni va to'pik klonuslar, so'zlash, afaziya – motor, sensor, dizartriya.

VEGETATIK ASAB SOHASINI TEKSHIRISH:

Ko'z simptomlari: ko'z to'kishining kengligi ekzoftalm yoki endseftalm. /Gorner simptomi/ teri: qizarishi yoki oqarishi, effekt holatida, terining issiqligi. Terlash va uning qayerda va o'zgargan joylarini tekshirib /terlamaslik, kamayishi, ko'p terlash/ terini pigmentatsiyasi, dermografizm va uning har - hil turlari.

5. Jinsiy va oilaviy hayot, oilaviy ahvoli /bo'ydoq, uylangan, oilali, ajrashgan/.

Hayz ko'rish qachon boshlandi, tartibliligi, qonning miqdori juda oz, biroz ko'p miqdorda ajratiladi og'riq bilan /og'riq bilan, kam og'riq bilan, qattiq og'riq bilan, og'riqsiz/. To'xtagan, vaqtincha to'xtagan, qachon uylandi yoki turmushga chiqdi: homiladorlik miqdori, uning kechishi, homilaning barvaqt, ayollar kasalligi, hayot qolgan bolalarning soni, o'lganlarni, nimadan vafot qilgan, klimaks va uning kechishi.

6. Odatlari: chekish /necha yoshidan va nechtdan/, alkogolli ichimliklar ichadimi? /pivo, quruq vino, aroq, spirt va boshqalarini tez – tez takrorlaydimi yoki kam iste'mol qiladimi, miqdori/ narkotik moddalar iste'mol qiladimi, yo'qmi?
7. Kechirgan kasalliklar va ularning ketma – ket tartibi, qaysi vaqtda, qaysi yili /necha yoshida/. Sizga qo'yilgan birinchi diagnoz poliklinikada, shifoxonada tasdiqlandimi yoki mutahassis tomonidan, diagnoz tasdiqlangan: bolalik va etuk yoshda o'tkazgan yuqumli kasalliklari: tanosil kasalliklari tan jarohati va operatsiyalar, ruhiy jarohatlar /kechinmalar/ endokrin va modda almashinuvining buzilishlari /diabet, podagra, semirish va boshqalar/.
8. Oilaviy xotiralar va irsiyat, ota-onasining, hotini /erining/ oila a'zolarini, bolalarni va boshqa shu oilada yashovchi shaxslarning zararli odatlari /yuqib qolishi mumkinligi yoki shunday sharoit yaratilishi, o'hshash kasalliklar chaqirishi mumkinligi/. Agar vafot etgan bo'lsa, nimadanligi /yurak qon – tomir kasalliklari, tuberkulyoz /sil/ sifilis /zahm/ ruhiy kasalliklar, rak, modda almashinuvi gemofiliya va boshqalar/.
9. Atrof – yaqinlarining kasalligi, asosan yuqumli kasalliklari.
10. Sukurtma hotiralar /anamnez/: mehnatga qobiliyatsizlik varaqalaridan foydalanishni takrorlanishi, invalidlik /nogironlik/ guruhi. Hozirgi vaqtda qachondan beri ishga layoqatsizlik varaqasi bor.

11. Allergologik /xotiralar/ /otalik/ oiladagi allergik kasalliklar, avvallari va hozirda /katta buvisida, otasida, onasida, aka-uka va singillarida/ qon quyilishi bo'lgan sezgirlik /qachon/ qon zardoblarini va vaksinalarga, /qaysinisiga va qachon har hil dorilarga/ qaysinisiga va qachon. Kasallikni faslga bog'liqligi /yoz, kuz, qish, bahor/, ob-havoning va hozirgi faktorlarning ta'siri /sovqotish, issiqlash va boshqalar/ shamollash kasalliklariga bog'liqligi /angina, bronxit, sinusit va boshqalar/. Ahvolining yomonlashishi yoki xurujining tutishi, qachon va qaerda ko'prok bilinadi /uyda, ishda, dalada, kunduzi, kechasi va boshqalar/.

Kasallikni kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

- a) har – hil oziq – ovqatlar, alkogolli ichimliklar, kosmetik moddalar, chang, hidlar.
- b) har – hil hayvonlar bilan aloqada bo'lish, kiyimlar, yotish anjomlari, /bolish, choyshab, ko'rpa/. Ish sharoiti kasbining zararliligi.
12. Epidemiologik xotiralar /anamnez/ yuqumli kasallar bilan aloqada bo'lganmi? /oilada, maktabda, tashkilotda, yo'lda, qarindosh-urug'lar ichida, qo'shnilar, tanish-bilishlar, birga ishlaganlar va xokazolar/. Qisqa vaqt bo'lsa ham isitmalagan kasallar bilan aloqada bo'lganmi? Kasal hayvonlar yoki ularni o'ligi bilan aloqada bo'lganmi? Hashoratlar chaqmaganmi? – bitlar, kanalar, pashshalar va boshqalar. Ish holati, ovqat, kiyimlardan foydalanish, oyoq kiyimlari orqali va boshqalar. Ohirgi 1,5 – 2 oy mobaynida boshqa shaharlarga bormagan, qachon, qaerda va qachon qancha davrda. Keyingi 1,5 – 2 oy mobaynida oilaga boshqa joylardan mehmonlar kelgan emasmi? va qaerda? SHaxsiy gigienani qanday saqlaydi /hammom, ustbosh, yotish joyi anjomlarini almashtirish/. Qaysi kasalliklarga qarshi profilaktik emlashlar qilingan. Qachon va necha marta. Ehtimolan kasallikni epidemiologik anamnezga bog'liqligi joylarini ko'rsatib ketish kerak.

aniqlash. Perkussiya – avvalo tepangi va pastki chegaralarini, ko'ndalangni qobirg'alar sonini ko'rsatgan holda aniqlanadi. Chunki ular orasida qora taloq joylashgan bo'ladi. Qora taloqning uzunligini va ko'ndalangni o'lchab santimetrlarda ko'rsatiladi.

XIII. OSHQOZON OSTI BEZINI TEKSHIRISH:

Avvalo oshqozon osti bezi sohasida yuzaki paypaslash o'tkaziladi. Keyin Obrastsov – Strajesko bo'yicha chuqur paypaslanadi. Uni qo'lga urinishini, konsistentsiyasini, og'riq bor – yo'qligini, tugunlar bor yo'qligini aniqlanadi.

XIV. SIYDIK CHIQARISH ORGANLARI:

SHikoyatlari: siydik chiqarish: a) og'riq bilan, og'riqsiz; b) siydik chiqarishning soni, asosan kechasi /nikturiya/; v) bir kecha –kunduzda chiqargan siydikning miqdori /dizuriya/; g) qiynalib siydik chiqarish; d) noto'g'ri siyish; e) og'riq, achishish, siydik chiqayotgan vaqtdagi og'riq /boshlanishida, ohirida/ sun'iy siydik qistashi; j) belda og'riqning bo'lishi /turg'un, xuruj bilan, kuchi, davomlilik, tarqalishi/; z) siydikning rangi, mo'tadil /somon – sariq, hira/ pivo rangida, qonli va boshqalar. Bel soxasini ko'zdan kechirish: o'zgarmagan, tekislangan, turtib chiqqan, terining giperemiyasi. Buyrak sohasida shish. Buyraklarning qo'lga urinishi va ularni harakatchanligi. Buyrak og'riq nuqtalari, siydik chiqarish yo'lining, buyrak sohasini to'killatganda og'riq paydo bo'lishi /to'killatish simptomi/. Pasternatskiy simptomi. Siydik pufagini paypaslash va to'killatishdan olingan ma'lumot.

XV. ASAB RUHINING AHVOLI:

1. Uyqu uyquchanlik, uyqusizlik, to'sh ko'rish.
2. O'z – o'ziga baho berish, /yuvosh, asabiy, qo'zg'aluvchan, jahldor, o'zini bosgan/ odamlar bilan aloqasi: ishda, oilada – dalag'ay, tunt. Kayfiyati: yuvosh, bir xil, susaygan, g'amgin.
3. Esda saqlash qobiliyati. (e'tiborli).

4. Ahamiyatliligi, turg'un, sochilgan.

va chov halqasini, muskullarni ajralishini/ va joyli, tarqalgan og'riqni aniqlash /uni joylanishini/ Mendel, SHetkin – Blyuberg simptomlari. Qorinni chuqur, sirpanma, usuli /metodik/ nafas paypaslashi /Obrastsov Strajesko usuli bilan – sigmasimon, ko'r, ko'tariluvchi, ko'ndalang, pastki tushuvchi ichaklarni birin – ketin paypaslash, har qaysi paypaslangan bo'laklarga alohida harakteristika berish, diametri, og'riqning bor yoki yo'qligi, harakatchanligi konsistentsiyasi/ qattiq, elastik, yuzasi /tekis, g'adir - budir/ shildirashi /g'uldirashi/ oshqozonni paypaslash /katta qirg'og'i/ pilorusni, oshqozonni katta qirg'og'ini va ichaklarni joylanishini aniqlash, to'kkilatish usuli bilan – oshqozonni timpaoitini va ichaklarni paypaslash usuli bilan, auskultatsiya usul bilan – shovqinlarni eshitish, oshqozon devoridan o'tkazilgan shitirlashni, perkutor – paypaslash usuli bilan – plesk shovqinini aniqlash.

XII. JIGAR – QORATALOQ SISTEMASI:

SHikoyatlari: o'ng qobirg'a ostidagi og'riqlar holati, /turg'un, xurujsimon, qancha davom etishi, kuchi/ o'ng kurakka tarqalishi, orqaga va boshqalar. Og'riqni paydo bo'lish va yo'qolib ketish sabablari, og'riq xurujlaridan so'ng ko'zning oq pardasini sarg'ayishi, og'riqni qusishga tana haroratini ko'tarilishiga bog'liqligi. Bemorda umuman qachonlardir sarg'ayish bo'lganmi va u qancha davom etgan. Jigar: perkussiya – metodi bilan aniqlash, tepangi va pastki chegaralari /uchta o'lchovda 5 ta nuqtani aniqlab/ jigarni paypaslash. Obrastsov – Strajesko bo'yicha konsistentsiya, yuzasi, /tekis, g'adir - budur/ chekkalari /o'tkir, dumaloqlangan/. Og'rishi: o't pufagi, paypaslash – og'riqni aniqlash, dumaloq elastik narsani aniqlash, u yoki bu darajada sezgirlikni /kattalashgan o't pufagini/ yoki qattiqroq konglomeratni o'smani shu joyda aniqlash. Undan tashqari og'riq nuqtalarini, zonalarini frenikus simptomi, Zaxarin – Mendel simptomi, Obrastsov – Merfi – Ortnera.

Qora taloqni paypaslash – uni qo‘lga urilishini aniqlash, agar qo‘lga urilsa, uni qirg‘oqlarini, og‘rishini, konsistentsiyasini

17

I. KASALLIKNING HOZIRGI HOLATI:

1. Bemorning tashqi ko‘rinishi.
2. Kasalning bo‘yi santimetrlarda, og‘irligi kilogrammda.
3. Hushi to‘lami /aniqmi/? Hushi hiralashganmi, stupor, sopor, koma, aljirash.
4. Kasalning umumiy ahvoli /qoniqarli, o‘rta og‘irlikda, og‘ir, juda og‘ir/.
5. Kasalning holati, harakteri /majburiy, sust/.
6. YUz ko‘rinishi: hushchaqchoq, befarq, g‘amgin.
7. Tana tuzilishi /to‘g‘ri, mustahkam, bo‘shashib/.
8. Konstitutsional tip /normostenik stenik, giperstenik/.

II. TERI:

1. Qichishi /joylanishi, paydo bo‘lish vaqti, holati/.
2. Terlama /paydo bo‘lgan vaqti va qandayligi/.
3. Rangi /oqargan, biroz bug‘doy rang, o‘ta bug‘doy rang, oq pushti, sariq, ko‘kargan va tsianoz/ pigmentlanishi, depigmentatsiya, giperemiya /joylashgan, joyini ko‘rsating/.
4. Terining taranligi va elastikligi.
5. Namlik darajasi – biroz, o‘ta nam, terisi quruq, pasaygan, qovjiragan.
6. Toshma – holati /rozeollar, petexiyalar, eritema, krapivnitsa /torvoq papulalar, herpes /uchuq/ pustulalar/.
7. Teri ostiga qon quyilishi.
8. CHandiq va uni harakatchanligi.
9. Ezilgan joylar, trofik yaralar.
10. Sochlari: to‘kilishi, oqarishi.
11. Tirnoqlari: sinuvchan, deformatsiya, chizilgan, soat oynasiga o‘hshab qolgan.
12. Barmoqlari “do‘mbira tayokchalari”ga o‘hshab ketgan.

III. SHILLIQ QABATLAR:

Rangi /oqargan, oq pushti, qip-qizil, ko‘kargan/, ko‘zni oq pardasini sarg‘ayishi.

6

IV. TERI OSTI YOG‘ QATLAMI:

1. Teri osti yog‘ qatlamining bir tekisligi va darajasi: /me'yorida, ozaygan, juda ko‘p miqdorda/. YOg‘ qatlamining eng ko‘p to‘plangan joylari, umumiy semirish, oriqlash, yog‘ tugunchalari.

2. SHishlar /umumiy, joyi/ uning darajasi va butun tana bo‘ylab joylashishi, yuzda, belda, qorinda, oyoqlarda, paydo bo‘lish va yo‘qotish sharoitlari, terini hamirsimonligi.

V. LIMFA BEZLARI:

Paypaslash joylaridagi tugunlar /quloq oldi, jag‘ osti, bo‘yin, qo‘ltiq, chov/ va ularning miqdorlari, tuzilishi, konsistentsiyasi, atrof to‘qimalari bilan va teriga yopishganligi, paypaslaganda og‘riydimi.

VI. MUSHAKLAR SISTEMASI:

1. Og‘riq /joylashishi/.
2. Taraqqiy darajasi /me'yorida, sust, atrofiya/.
3. Tarangligi /me'yorida, ortiqcha, susaygan, kontrakturalar/.
4. Mushaklarning tirishishi /joylashishi/.
5. Qaltirashi /mayda tremar/ barmoqlarida, qo‘lda, qovoqlar, til, paypaslaganda og‘rishi.
6. Mushaklarning kuchi /dinamometriya ko‘rsatkichi/.

VII. SUYAK SISTEMASI:

Og‘riqlar ularning holati, joylanishi, bosh suyaklarning deformatsiyasi, umurtqaning qiyshayishi, ko‘krak qafasini, tos suyagining paypaslaganda va to‘killaganda og‘rishi.

VIII. BO‘G‘IMLAR:

Og‘riqlar, ularning holati, joylanishi va paydo bo‘lish vaqti.

Harakatchanligi, harakatchan, sust /kontrakturalar, ankilozlar/ konfiratsiyasining o'zgarishi /deformatsiya/. SHishishi,

7

zog'oralashgan. Malinasimon rangli til, laksimon til, tilning ishishi, yorilgan yaralar /yangi tishlab olgandan keyin/ chandiqlar. Tamoq: rangi me'yorida qizarinquiragan, shilliq qavati shishgan, quruq, qarash bosgan /bodomsimon/.

Bodomcha bezlar: mo'tadil miqdorda, gipertrofiyalashgan, qizargan ishgan, qarash bosgan /tarqalganligini, rangini, engil yoki qiyin ajralishishi/ pufaglar. YUtum, mo'tadil rangda, qizargan, shilliq qavati, quruq, donador, yaltillagan.

Qorin sohasini ko'zdan kechirish:

Qorinning konfiguratsiyasi: me'yorida /yotganda, tik turganda/ noto'g'ri shishgan /bir tekisda yoki notekis, kattalashgan/ bir tekisda yoki ayrim joylarida joylashgan. Baqa qorniga o'hshash qorin, yassilangan, tortilgan, /ladyasimon/ qorinning bilinarli assometriyasi qaysi joyda qorinning oldingi devoridagi bilinarli venalarning kengayishi/ kolleterallar /kindik atrofida – meduza kallasi/ uni yon tomonlarida.

Qorin devoridan bemalol ko'rinadigan o'zgarishlar /bir tekis, notekis/. Qorin devoridagi o'girilgan o'rtib chiqishlar, nafas olganda, kuchanganda /oq chiziq sohasida, kindik sohasida va boshqa dabbalar/. Qorin sohasida ko'zga tashlanadigan shishlar. Qorin aylanasini o'lchash, kindik oldidan santimetrlarda.

QORINNI TO'KKILATIB KO'RISH /PERKUSSIYA/:

Timpatitni qay darajadiligini yozish, agar bo'g'ik tovush aniqlansa uni ajratib kelib chiqishini /suyuqlikdanmi, ahlatni to'planishidanmi yoki shishlar borligidanmi/. Qorin bo'shlig'idagi suyuqlik va o'girilgan suyuqlikni ajratib aniqlash /bemorning holatini o'zgartirib tekshirish/. Kattalashgan qorinni tekshirishda "flyuktatsiya" belgisini aniqlash.

Qorinni paypaslash:

Qorinni yuzasini paypaslash – qorin devorini kuchlanishini aniqlash /muskullar himoyasini aniqlash, kuchsiz joylarini, kindik

16

tarqalishi; b) ovqat qabul qilishiga bog'liqmi, ovqatdan keyin /qancha vaqtdan keyin/ och qorinni kechasi bezovta qilayotgan og'riq; v) qusgandan so'ng og'riq engillashadimi? g) og'riqning paydo bo'lishida va kuchliligini ovqatlanish sifatiga, holatiga bog'liqligi, qo'pol, yog'lik, o'tlar va boshqalar; d) og'riqning holati – o'tkir, zirqiratuvcchi, o'tmas, xuruj bilan, turg'un yoki asta – sekin kuchayuvchi davomliligi /davriyligi va boshqa/ og'riqning tarqalishi.

10. Ichaklar: a) qorindagi og'riqning ovqat iste'mol qilishning vaqtiga va ovqatlanish holatiga bog'liqligi. Og'riqning ahlatni chiqishiga bog'liqligi. Qorin taranglanishi va og'irlik sezish; b) qorinning dam bo'lishi, gaz chiqishi: mo'tadil, kuchaygan, qiyinchilik bilan; v) orqa peshovdagi og'riq va achishishi, kuchanishi; g) ahlat me'yorida osonlik bilan o'z-o'zidan yoki qandaydir usullar bilan; d) ich qotishi, necha kundan beri ich yurmeyapti, ovqatlanish holatiga bog'liqligi; e) ich ketish /ich ketish nimalarga bog'liqligi/ ovqat, asabning zo'riqishi, ich ketishning boshlangan vaqti va bir kunda necha marta ich ketadi. Og'riq bo'ladimi, sun'iy hohish – tenzmalar. Ahlatning konsistentsiyasi va tuzilishi /qattiq, suyuq, suvsimon/. Ahlatning rangi: jigarrang, kulrang, loysimon /rangsiz, qora/ memna va hokazo. Hidi: odatdagidek, nohush, yiringli hidi, achchiq. Aralashmalar, ishemik, qon, ovqat qoldiqlari, gijjalar; j) bavosil, og'riq, qon ketish, to'g'ri ichakning tushib qolishi.

Og'iz bo'shlig'ini tekshirish:

Hidi: odatdagidek, yiringli xidi, amiak hidi, "olma" hidi va boshqalar. Lab ichki yuzasining shilliq qavatlarini lunj yumshoq va qattiq tang'lay uning rangi. Mo'tadil, pushti, oqargan, qizargan, pigmentlanishi, filatov dog'lari, yarachalar, leykoplakiya, aftalar, milk oqargan, pushti, qon ketish, kulrang, chegara. Tishlar karioz tishlar bormi, qimirlaganlari, yo'qlari /qaysi jag'da qaysi tishlar

yo'qligini ko'rsatish/ Gutchenson tishlar, qo'yilgan tishlar. Til: ho'l /nam/ toza, quruq, qarash bosgan /ozgina, biroz, ko'p/

15

yo'g'onlashishi, qiyshayishi. Paypaslaganda og'rishi, aktiv va passiv harakatlanganda; qisirlashi, flyutuatsiya, joyi haroratining oshishi, bo'g'imlar terisi rangining o'zgarishi.

IX. NAFAS OLISH ORGANLARI:

SHikoyatlari:

1. Yo'tal va quruq yoki balg'am bilan yo'talning paydo bo'lish vaqti /ertalab, kuni bilan/: turg'un yoki vaqti – vaqti bilan, yo'talni chaqiruvchi va kuchaytiruvchi sabablar.

2. Balg'am: qanday ajraladi /bemalol, qiyinchilik bilan, tananing qanday holatida ko'proq, ajraladi/, miqdori va bir kun davrida qanday o'zgaradi. Holati: /shilimshiq, yiringli, qonsimon aralash hidi, rangi/.

3. Qon tupurishi: tez-tez qaytariladi, miqdori, shunday holatlarda tana harorati ko'tariladimi: paydo bo'lish davri, intensivligi, balg'amdagi qon ipchalari yoki qon nuqtasi. Balg'am bilan aralashgan bir nechta tuguncha hisobida, bir piyolacha, bir stakanga, suyuq yoki ivigan qon lahtalari, rangi, qip-qizil, qorachiq, qop-qora.

4. Ko'krak qafasidagi og'riq: joylanishi, holati, intensivligi, turg'unligi yoki xuruj bilan, nima sababdan kuchayadi. Og'riqning tarqalishi.

5. Hansirash /darajasi, holati, vaqti va paydo bo'lish sababi, turi, inspirator, eksplorator, aralash/.

6. Bo'g'ilish /astma/ vaqti va soati, nima sabab bo'ladi, davomligi, bo'g'ilish xuruji vaqtida kasalning holati, kuchi va qo'shimcha kasalliklar.

7. Burun: burun bilan nafas olish /bemalol, qiynalib burundan qon ketish, paydo bo'lish vaqti va sabablari/.

8. Kekirdak: tovush /afoniya, hirillash/.

Ko'krak qafasini ko'zdan kechirish:

Ko'krak qafasining tuzilishi
. . . emfizematik, /bochkasimon/, rahatlik va boshqalar. /assimetriya/ ezilgan joylari /chuqurlashish/ do'mpaygan, umurtqaning

8

qiyshayishi /kifoz, lardo, skalioz/. Umrov osti va ust qismlari: umrov suyagining turishi va tuzilishi. Kuragining turishi, qobirg'a oralari, oshqozon usti burchagi /to'g'ri, o'tkir, o'tmas/. Ko'krak qafasining dinamik va statik ko'zdan kechirish, nafas olganda ko'krak qafasining harakatining simmetrikligi /bir hilligi/ - bir me'yorda nafas olganda va chuqur nafas olganda. Me'yorida: aralash ko'proq qorin harakati bilan nafas olish – erkaklarda va qobirg'alar harakati bilan nafas olish – ayollarda.

Dispnoe – nafasning tezlashishi va chuqurlashishi. Patologik nafas olish tiplari /CHeyn-Stoks, Biot, Kusmaul/ Bir minutda nafas olishning soni, hansirash va inspirator, eksplorator, aralash /qanday holatlarda/, yuzaki nafas olish /taxipoe/, ortopnoe.

KO'KRAK QAFASINI PAYPASLASH:

Paypaslab qobirg'alardagi og'riqni, qobirg'a, oraligini, tush suyagini, toshushdirillashini aniqlash /susaygan, kuchaygan, o'zgarmagan, aniqlab bo'lmadi/. Ko'krak qafasining elastikligi va rezistentligi. Ko'krak qafasining nafas ekskursiyasi /ko'krak qafasi aylanasi o'lchash, kurak uchlaridan va 4 qobirg'a oldidagi, osoyishta nafas olganda, chuqur nafas olganda va chiqarganda/.

O'PKANI TUKKILATIB KO'RISH:

A. Solishtirma tukkilatish:

Simmetrik joylarda perkussiya qilib umrov osti va ustki qismlarida, ko'krak qafasining tepa, old tomonidan, yon tomonidan, orqadan, past va kuraklar oraligidagi perkutor tovushni holatini aniqlash. Tiniq o'pka tovushi, bug'ik, timpatik, quticha tovushi, har qaysi tovushning aniq chegaralarini aniqlash: vertikal /tip turganda/ qobirg'alarga nisbatan, qobirg'a oraliqlarida, gorizontaal yo'nalishda va topografik chiziqlarda.

B. Topografik perkussiya /tukkilatish/:

1. Oldi tomonidan o'pka uchining turishini aniqlash, umrov suyagiga nisbatan aniqlash, orqa tomondan VP bo'yin umurtkasiga nisbatan o'ngdan va chapdan.

9

Venalarni ko'zdan kechirish va paypaslash: venalarni pul'satsiyasini aniq joyini ko'rsatish, arterial pul'satsiyasi bilan hamohangligi /sinxronligi/ ko'krak qafasi sohasidagi venalarni kengayishi, qorin sohasida, oyoqlardagi venalarni kengaygan darajasi va joylarni aniq ko'rsatish.

Venalarni qattiqlashgan va og'riqni sezadigan joylarini, qaysi venada ekanligini, qattiqlashgan joylarni uzunligini ko'rsatish.

XI. OVQAT-HAZM QILISH ORGANLARI:

SHikoyatlari:

1. Ishtahasi yaxshi, yo'q, aynigan, ovqatga ishtahasizlik /qanday/, to'yinish me'yorida, tez, doimo ochlik sezish.
2. CHanqash, og'iz bo'shlig'ining quruqlashishi iste'mol qilingan suyuqlikning miqdori.
3. Maza sezish /qanday/ nohush, achchiq sezish, kislota /nordonlik/ sezish, tomir mazasini sezish.
4. CHaynash: ovqatni yaxshi chaynaydimi /agar chaynay olmasa, uning sababi, tishlarning yo'qligi, og'riq va boshqalar/.
5. So'lak oqishi.
6. Ovqatni chaynash va uni qizilo'ngach orqali o'tishi, bemalol, og'riq bilan, qiyinchilik bilan, qanday ovqatlar o'tmaydi.
7. Dispeptik holatlar /zarda, tez-tez va qanday sharoitda/
b) kekirish: ovqat bilan, to'sh, nordon, achchiq, palada tuxum hidiga o'hshash, achib qolgan ovqat bilan;
v) ko'ngil aynishi: ovqat iste'mol qilishga bog'liqligi va qanday ovqatlardan keyin, necha marta.
8. Qusish: a) nahorda, ovqatdan keyin, /ovqat qabul qilish bilan oq yoki bir qancha vaqt o'tgandan keyin/ qusiqning holati, hozirgina iste'mol qilgan ovqatni qusish yoki bir qancha vaqt oldin qabul qilgan ovqatni qusish, nordon suyuqliqni bilan ko'chish, o't bilan, miqdori; v) qusishdagi qon, yangi, temnaya

/kofe uyumining rangsimon/: g) qusishning hidi nohush, yiringli nordon, hidsiz.

9. To'sh osti sohasidagi og'riq: a) joylanishi, og'riqning

14

mon ritmi, embriokardiya/. Qaerda o'zgarish topilgan bo'lsa, ularni ko'rsatish kerak. Bir minutda yurak qisqarishining soni.

SHovqinlarni eshitish: ularni yurak faoliyatining fazasiga sog'liqligi, sistolik, diastolik /mezo, protoi prehistoli/ shovqinning holati: yumshoq, shabadasimon, arra tovushsimon va boshqalar. Kuchi: birdaniga, kuchsiz va boshqalar. Tembri yumshoq, qo'pol, baland, past. Davomliligi: uzun, kalta, kuchayib boruvchi, susayib boruvchi. Eng kuchli eshitish joyi. SHovqinning tarqalish yo'li. Jismoniy harakatda ularning kuchayishi va susayishi: perikardning sirlanish shovqini. /plevro – perikardial shovqinlarini eshitishtilish joyi/.

Qon tomirlarini tekshirish:

Bo'yin tomirlarni tekshirish: tomirlar o'zgarmagan, o'q arteriyasini pul'satsiyasi, vena tomirlarini shishishi. Venalarning pul'satsiyasi /musbat va manfiy vena pul'si/.

Periferik tomirlarni tekshirish arteriya tomirlarining pul'satsiyasini ko'zga tashlanishi. Umrov osti arteriyasining pul'satsiyasi /visochnik/ vena bilan va boshqa arteriyalar. Arteriyalarning egri-bugriligi, kapillyar pul's Kvinke, tush osti /pul'satsiyasi nimadan hosil bo'lgan, aortadan, o'ng qorinchani, gipertrofiyasi, jigar pul'satsiyasi/. Bilak, uyqu, son arteriyalari va to'pik arteriyalari: egri – bugri, to'g'ri, yumshoq, qattiq, tugunsimon.

Jgut simptomini aniqlash /Konchalovskiy/ “SHipka” /chimdish/ va Konchalovskiy – Rultel' – Lide pul'sining hususiyatini aniqlash: ritm to'g'ri – mo'tadil, noto'g'ri /yurak urushining soni bilan arteriyasidagi tomir urushining farqi – pul's difitsiti/. Tomir urushining soni, kuchsizlanishi, to'liqligi /to'la, bo'sh, ipsimon/ balandligi, miqdori, tezligi. O'ng va chap qo'lda taqqoslab tekshirish katta arteriyalarni eshitish /ikkilangan Traube toni ikkilangan Vinogradov – Dyuroz'e shovqini/.

Korotkov usuli bo'yicha maksimal /sistolik va minimal/ diastolik arterial bosimni aniqlash. Pul's bosimini ko'rsatish.

13

2. Krening maydonini kengligi aniqlash.

O'pka uchining kengligini, santimetrlarda, ikkala tomondan.

3. Ikkala tomondan vertikal topografik chiziqlar bo'yicha pastki chegaralarini aniqlash.

Tush oldi –

Umrov suyagining o'rtasidan faqat o'ngda

Qo'ltiq ostining old tomondan.

- qo'ltiq ostining o'rtasidan.
- qo'ltiq ostining orqa tomonidan.
- kurak chizigi bo'yicha.
- Umurtqa oldi chizig'idan.

4. O'pkaning pastki qirg'oqlarini kurak va qo'ltiq osti oldi tomonidan chiziqdan ikkala tomondan santimetrlarda aniqlanadi: nafas olganda, nafas chiqarganda, jami bo'lib.

O'PKA AUSKULTATSIYASI:

Taqqoslash auskultatsiyasi, nafas shovqinlarining holati: vezikulyar /me'yorida, susaygan, kuchaygan, qattiq, saqqodirlashgan/, bronxial /amfrik, aralash, nafas shovqinlari eshitilmayapti/, hamma nafas turlarini chegaralarini to'liq va aniq qilib yozish kerak.

Qo'shimcha nafas shovqinlari borligini /hirillashi yoki g'ijillash/, quruq, past tovushli, baland tovushli, nam hirillashlar, unli, unsiz mayda, o'rta yoki katta pufakchasi, krepitatsiya va eshitilgan joylarni aniq ko'rsatish kerak. O'pka pardasining sirgalish shovqini, eshitilish joylari.

Bronxofoniya, ovoz shovqinlarining o'tkazilishi, ikkala tomondan bir hil, susaygan yoki bir tomondan kuchaygan. Aniqlangan o'zgarishlarni joylanishini ko'rsatish kerak.

X. QON AYLANISH ORGANLARI:

SHikoyatlari:

1. Hansirash, turg'un /tinchlikda/ yoki jismoniy harakat

10

qilganda, yurganda, pillapoyalar bilan balandlikka ko'tarilganda, gaplashganda, joyda gorizontal yotganda, hansirashning kuchi va davomiyligi.

2. YUrak sohasida og'riq, turg'un yoki xuruj bilan joylashishi, /tush orqasida, yurak uchining to'rtkisi sohasida va boshqalar/ holati, zirqirab, sanchib, siqib, o'tmas, hayajon va o'lim sarosimasi bilan o'tishi, intensivligi, tarqalishi, davomiyligi, og'riq xurujining tezligi, soni, sababi va qanday sharoitlarda paydo bo'ladi /jismoniy harakatda, hayajonlanganda, uyquda va boshqa/. Og'riq xuruj qilgan paytda kasalning hatti – harakatlari /hulqi/, qaysi dorilar yordam beradi.

3. YUrakni to'xtab-to'xtab urishi, yurakning to'xtab qolishi: turg'un yoki vaqti – vaqti bilan poroksizmal, taxikardiya xuruji.

4. YUrak o'ynashi: holati /turg'un, xuruj bilan, davomiyligi, paydo bo'lishi uchun sharoit – jismoniy, kuchlanishda, tinch turganda, ovqatlangandan so'ng/.

5. SHishlar, ularning hususiyatlari /joylanishi/ oyoqlarda va boshqa joylarda /paydo bo'lish vaqti/, /kechqurun, ertalab/ jismoniy harakat bilan bog'liqligi, suyuqlik iste'mol qilish bilan bog'liqligi.

6. Tomir urishining sezilishi /tananing qaysi qismlarida/.

7. Periferik qon tomirlarining torayish /spazm/ belgilari oqsolanish, barmoqlarni "o'lik" holda sezish va boshqalar.

8. Miyada qon aylanishining buzilish belgilari, oyoqlar quvvatini susayishi, tutqaloq /tomir tortilishi/, sezgining buzilishi, gipokineziyalar, paresteziyalar, sezgi organlari a'zolari tomonidan o'zgarish, so'zlash va boshqalar.

YUrak sohasini ko'zdan kechirish, yurak bukrining borligi, yurak uchi turtqilanishi, ko'zga tashlanishi. Agar ko'zga tashlansa, uni joylanishi /qobirg'a oraliqlari, umrov o'rtasi chizig'iga nisbatan turishi/. YUrak uchi turtqisi sohasida sistolik ichkariga tortilishlar

va yurakning boshqa sohalarida. YUrak turtqisi, yurak asosidagi silqinishlar.

11

YURAK SOHASINI PAYPASLASH (PALPATSIYA):

YUrak uchi turtqisining turlari /chegaralangan, yoyilgan, yurak turtqisi, yurakning uchidagina/. YUrak uchi to'rtqisining xossalari: kengligi, balandligi, kuchi, rezistentligi /"mushuk hirillash"/, sistolik va diastolik dirillashlarni yurak uchida, asosida, joylanishini aniqlash.

YURAKNI TUKKILATIB KO'RISH (PERKUSSIYA):

YUrakning nisbiy bo'g'ik chegarasini aniqlash, o'ngda tush suyagining o'ng qirg'og'iga nisbatan /santimetrlarda/.

O'ng tomondan jigar parda gumbazidan yuqorida IV – qobirg'a oraligida, chapdan yurak uchi turtqisiga nisbatan umrov o'rtasi, chizig'idan V – qobirg'a oraligida. Tepa tomondan tush suyagi chizig'idan 1-1,5 sm tashqarida 3 – qobirg'ada. YUrakning nisbiy bo'g'ik konfiguratsiya /me'yorda mitral, aortal/ har qaysi, qobirg'a oraligida tukkilatib ikkala tomondan aniqlanadi: yurakning ko'ndalang kesimini aniqlash /o'ngdan, chapdan/. YUrakning aniq bo'g'iq chegarasini /o'ng, chap va tepadan/, qon tomirlar tutamining ko'ndalang kesimini ikkinchi qobirg'a oraligida ikkala tomondan tush suyagiga qarab tukkilatib santimetrlarda o'lchanadi.

YURAKNI ESHITISH /AUSKULTATSIYA/:

YUrak tomirlarini beshta nuqtada qoidali eshitib, harakterlash. Bunda har bir nuqtada qaysi yurak qopqoqchasi qaerda eshitaladi va qaerda joylashgan. Qaysi ton hisobga olinayapti. Masalan, bir nuqta mitral /ikki tavaqalik/ qopqoqcha, tush suyagining chap qirg'og'ida, III – qobirg'a yopishgan joyda joylashgan.

I – ton yurak uchida /eshitaladi/.

I – ton: mo'tadil tovushda /skogda/, susaygan, kuchaygan, /xlopayushiy/ kataksimon, ikkilangan, cho'zilgan.

II – ton: mo'tadil ohangda, kuchaygan, /jarangdor/ susaygan, bo'lingan, cho'zilgan, ikkilangan. Bedana ritmi /ot chopishi-simon ritmi, presistolik, mezosistolik va protodiastolik, mayatniksi-

12